

## AMERIKA ADABIYOTIDA OBRAZ TASVIRINING IFODALANISHI

*Mamanabiyeva Shaxrizoda Sharofidin qizi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz tili № 2 fakulteti, “Ingliz tili amaliy fanlar” № 2 kafedrasida o‘qituvchisi*

## REPRESENTATION OF CHARACTER DEPICTION IN AMERICAN LITERATURE

*Mamanabiyeva Shaxrizoda Sharofidin qizi, Teacher of Department of Applied English Language 2, Faculty of English Language 2, Uzbekistan State World Language University*

## ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗОВ В АМЕРИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

*Маманабиева Шахризода Шарофидина кызы, Узбекский государственный университет мировых языков, факультет английского языка №2, преподаватель кафедры №2 «Прикладной английский язык»*



<https://orcid.org/0009-0009-5631-4416>

*e-mail:*  
[mamanabiyevashahrizoda@gmail.com](mailto:mamanabiyevashahrizoda@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amerika adabiyotida obraz tasvirining ifodalanishi, asarlardagi qahramonlarning ichki dunyosini, shaxsiyati, hissiyotlari va ichki dunyosi qanday ochib berilishi Amerika adabiyotidan namunalar oqali ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** obraz tasviri, qahramonlar ruhiy holati, psixologik holatlar, romantizm, realizm, modernizm, postmodernizm, romanlar.

**Abstract:** In this article, the representation of the image in American literature, how the inner world, personality, feelings and inner world of the characters in the works are revealed, with examples from American literature.

**Key words:** image, characters' mental state, psychological states, Romanticism, Realism, Modernism, Postmodernism, novels.

**Аннотация:** В данной статье представлено изображение образа в американской литературе, как раскрывается внутренний мир личности, чувства, внутренний мир героев произведений, на примерах из американской литературы.

**Ключевые слова:** образ, душевное состояние персонажей, психологические состояния, романтизм, реализм, модернизм, постмодернизм, романы.

**KIRISH.** Amerika adabiyotida inson obrazi tasviri (human imagery) turli uslubiy yondashuvlar va davrlarning madaniy kontekstlariga qarab farq qiladi. Avvalo obraz tasviri deganda nimani tushunishimizni bilib olamiz. Inson obrazi tasviri bu qahramonlarning ichki dunyosi, shaxsiyati, va emotsiyalarini tasvirlash uchun ishlatiladigan

tasviriy usuldir. Inson obrazi tasviri bu qahramonlarning shaxsiyati, hissiyotlari va ichki dunyosini tasvirlash uchun ishlatiladigan tasviriy tildan foydalanishdir. Bu tasvirlar orqali qahramonlarning ruhiy holatini, xarakteri va hayotiy tajribalarini chuqurroq tushunishi mumkin. Amerika adabiyotiga nazar soladigan bo‘lsak, inson obrazlari

ko'pincha diniy yoki axloqiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Ko'pincha axloqiy o'zgarishlar yoki ma'naviy yuksalishlarni ko'rishimiz mumkin. Misol qilib aytadigan bo'lsak, Anne Bradstreet va Jonathan Edwards kabi yozuvchilar o'z asarlarida qahramonlarning ichki kurashlarini va diniy e'tiqodlarini tasvirlaganlar.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Romantizm davrida, ya'ni XIX asr boshlarida romantik yozuvchilar, masalan, Edgar Allan Poe, Nathaniel Hawthorne, va Herman Melville, inson obrazlarini ko'proq o'z ichki muammolari, hayajonlari va mavhum holatlari bilan tasvirlashgan. Poening asarlarida qahramonlarning ruhiy buzilishlari va qorong'u tasvirlar mavjud. Realizm va naturalizm davrida, ya'ni XIX asr oxirida esa, realistlik va naturalistik yozuvchilar, masalan, Mark Twain va Theodore Dreiser, qahramonlarning kundalik hayoti, iqtisodiy sharoitlari va jamiyatdagi o'rni haqida chuqurroq tasvirlar yaratdilar. Twain'ning qahramonlari, masalan, Missisipi daryosidagi hayoti orqali insonning ijtimoiy va shaxsiy kurashlarini aks ettiradi. Modernizm davrida ya'ni XX asr boshlarida modernist yozuvchilar, masalan, William Faulkner va F.Scott Fitzgerald, inson obrazlarini parchalangan va ramziy tasvirlarda ko'rsatadilar. Faulkner'ning asarlarida qahramonlarning ichki dunyosi va psixologik holatlari chuqur tahlil qilinadi.

Postmodernizm va zamonaviy adabiyot davrida, ya'ni XX asr oxiri va hozirgi davrda Postmodern yozuvchilar, masalan, Toni Morrison va Don DeLillo, inson obrazlarini ko'proq madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlarda tasvirlaydilar. Morrisonning qahramonlari, masalan, qullik merosining inson shaxsiyatiga ta'sirini chuqurroq o'rganadi. Inson obrazida turli xil psixologik, emotsional, sotsial va allegorik tasvirlarni ko'rishimiz mumkin. Bunda psixologik tasvirlarga qahramonlarning ichki kurashlari va ruhiy holatlari kiradi. Masalan, Faulknerning "The Sound and the Fury" asarida psixologik tasvirlar aks etgan. Emotsional tasvirlarda qahramonlarning histuyg'ulari va ichki tajribalari aks etadi. Fitzgeraldning "The Great Gatsby" asarida Gatsby'ning umidlari emotsional tasvirga yaqqol misoldir. Sotsial tasvirlar esa qahramonlarning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy sharoitlarga munosabatini ko'rsatadi. Mark Twainning "Huckleberry Finn" asaridagi tasvirlar bunga misol

bo'ladi. Allegorik tasvirlarda esa qahramonlarning ramziy yoki allegorik ko'rinishlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Toni Morrison'ning "Beloved" asarida qullikning inson shaxsiyatiga ta'siri allegorik tasvirlar orqali aks etgan.

**NATIJALAR.** Inson obrazi tasvirlari qahramonlarning shaxsiyati va ichki dunyosini ochib beradi. Bu orqali o'quvchilar qahramonlarni yaxshiroq tushunishi mumkin. Inson obrazlari orqali erkinlik, ijtimoiy adolatsizlik yoki ruhiy iztirob chuqurroq o'rganiladi. Qahramonlarning ichki holatlari orqali o'qiydiganlar empatiya hissini rivojlantirishi mumkin. Bu inson tajribalarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

**MUHOKAMA.** Amerika adabiyotiga nazar salsak, ko'pgina misollarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Edgar Allan Poe'ning ijodida ruhiy tushkunliklar o'z aksini topgan[1]. Poening qahramonlari ko'pincha ruhiy iztiroblar va tushkun holatlarni aks ettiradi, masalan, "The Tell-Tale Heart" asaridagi qahramon. Asar, qahramonning dahshatli jinoyati va uning ortidan kechgan ruhiy holatlarini tasvirlaydi[2]. Asosiy qahramonning shaxsiyati va ruhiy holati asar davomida ochib berilgan. Asar qahramoni juda murakkab va ichki kechinmalari chuqur bo'lgan bir shaxsdir. U o'zini aqlli va jiddiy hisoblaydi, lekin aslida uning ruhiy holati juda beqaror bo'ladi. U o'zining o'ziga xos "yaxshi" sabablar bilan qasddan jinoyat qilishini oqlashga harakat qiladi, lekin bu barcha o'z-o'zini oqlashlar, aslida uning ruhiy holatidagi buzilishlarning ifodasi sifatida ko'rinadi. Uning bu jinoyatdagi roli – bu nafaqat qo'rqinchli, balki tahlil qilish uchun juda qiziqarli. Qahramonning ichki kechinmalari, uning qonunga bo'ysunmasligi va harakatlarining qaysi nuqtada boshqa bir darajaga o'tishi asarning asosiy mavzularidan biridir.

William Faulknerning "The Sound and the Fury" asarida qahramonlarning ichki dunyosi va psixologik holatlari batafsil tasvirlanadi. Asar Amerikada janubiy hayotning parchalanishini va oilaning inqirozini tasvirlaydi. Roman to'rt xil nuqtani nazardan, vaqt va makonning murakkab tuzilishi orqali hikoya qilinadi[3]. Roman, Compson oilasining ichki muammolari va parchalanishini chuqur tasvirlaydi. Har bir qahramonning o'zining muammolari va xotiralari orqali oilaning qanchalik tarqalganini ko'rsatadi. Faulkner vaqtni murakkab va noaniq tarzda tasvirlaydi, bu orqali voqealar va

qahramonlarning ruhiy holatlarini aks ettiradi. Roman janubiy Amerikaning o'zgaruvchan ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarini tasvirlaydi. Compson oilasi, janubiy jamiyatning o'zgarishi va parchalanishi bilan bog'liq muammolarni aks ettiradi. Qahramonlarning ichki iztiroblari, psixologik holatlari va ruhiy qiyinchiliklari asarning markazida turadi. "The Sound and the Fury" o'zining murakkab struktura va chuqur ruhiy tahlili bilan tanilgan, bu esa uni adabiyotning eng buyuk asarlaridan biri qiladi.

Toni Morrison "Beloved"da qullik merosini va uning qahramonlarining ichki dunyosiga ta'sirini chuqur tasvirlaydi. Asarning markaziy qahramoni, Sethe, qaramlikdan qutulgan va yangi hayot boshlash uchun harakat qilayotgan sobiq qul. U o'zining o'g'li Denver va qizlari bilan yashaydi. Sethe o'zining qaramlik davrida yuzaga kelgan travmalar va azoblarni unutishga harakat qilsa ham, o'zining o'tmishi hayotiga doimo ta'sir qiladi. Sethe va uning oilasiga qaytgan hayvon shaklidagi ruh, "Beloved" asar voqealariga katta ta'sir ko'rsatadi. Beloved, Sethening o'zining qaramlik davrida o'ldirilgan qizi bo'lib, u o'zining o'limidan keyin Sethening hayotiga qaytadi. Roman, qaramlikning insoniy tajribalarga va uning insonlarning o'zlik hissiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi[4]. Sethening travmalari va ularning hayotga ta'siri, qaramlikning oqibatlarini haqida chuqur tafakkur qiladi. "Beloved" qaramlik davrining tarixiy travmalarini va ularning avlodlarga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Asar, o'zining tarixiy xotiralari va o'zgarishlari bilan qora tanli Amerikaning o'tmishini qamrab oladi. Sethe va boshqa qahramonlar o'zlarning shaxsiy identitetlarini va yangi hayotlarini yaratishlari uchun kurashadi. Ularning tarixiy travmalardan chiqish va yangi identitetni yaratishdagi harakatlari asar orqali ko'rsatiladi. Sethening ayollik roli va onalik tajribasi, uning hayotidagi muhim mavzularga bog'liq masalalarni aks ettiradi. "Beloved" Toni Morrisonning adabiyotdagi o'zining muhim o'rnini tasvirlaydigan, tarixiy, ruhiy va ijtimoiy jihatlardan chuqurroq tahlil qilinadigan asar hisoblanadi[5]. "The Great Gatsby"da Gatsby'ning orzulari, umidlari va ichki muammolari tasvirlanadi. Romanning markaziy qahramoni Jay Gatsby, o'zining boylik va muvaffaqiyatga bo'lgan

intilishlari bilan tanilgan sirli shaxs hisoblanadi. Romanning markaziy mavzularidan biri Amerikaning orzulari va muvaffaqiyatga intilishdir. Gatsbyning boylikka erishish va eski sevgilisini qaytarishga bo'lgan intilishi, Amerika orzularining realizatsiyasini va qanchalik amalga oshirishini ko'rsatadi. Gatsbyning boyligi va ijtimoiy mavqei, sinfiy bo'linishlar va ijtimoiy mavqe muammolarini aks ettiradi. Gatsbyning boylik va muvaffaqiyatga bo'lgan intilishi, asosan, baxt va ichki to'liqlik izlash bilan bog'liq. U o'zining orzularini amalga oshirishga harakat qilsa ham, haqiqiy baxtni topa olmaydi. Gatsbyning hayoti va shaxsiyati, uning tashqi ko'rinishi va ichki haqiqatlari o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi. U o'zining real hayoti va jamoatchilikka ko'rsatadigan obrazlari o'rtasida kurashadi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Amerika adabiyotida inson obrazini tahlil qilish, qahramonlarning ichki dunyosi va his-tuyg'ularini chuqurroq anglashni o'z ichiga oladi. Amerika adabiyotida inson obrazining tasviri qahramonlarning ichki holatlari va shaxsiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi, shu bilan birga adabiy asarlarning emotsional va tematik qatlamlarini ochib beradi. Asarlar qahramonlarining hissiyotlari, ichki dunyosini, ruhiy holatini, karakterini va hayotiy tajribalarini ochib bergan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Silverman, Kenneth. *Edgar A. Poe: Mournful and Never-ending Remembrance*. New York: Harper Perennial, 1991. ISBN 0-06-092331-8, p. 201.
2. The Tales of Edgar Allan Poe (index). *eapoe.org*. The Edgar Allan Poe Society of Baltimore. September 30, 2007. Retrieved 2007-11-05. p.106.
3. Bleikasten, André. *The Ink of Melancholy: Faulkner's Novels from The Sound and the Fury to Light in August*. Bloomington: Indiana UP, 1990. p. 98.
4. Schapiro, Barbara (1991). *The Bonds of Love and the Boundaries of Self in Toni Morrison's "Beloved"*. *Contemporary Literature*. **32** (2). *University of Wisconsin Press*: p. 194–210.
5. Koolish, Lynda (2001). *To Be Loved and Cry Shame: A Psychological Reading of Toni Morrison's "Beloved"*. *MELUS*. **26** (4). Society for the Study of the Multi-Ethnic Literature of the United States: p.169.